

Ikkinchi til sifatida nemis tilini o‘qitishda qo‘llaniladigan leksik mashqlar turlari va ularning ta’siri

Виды лексических упражнений и их влияние при обучении немецкому языку как второму иностранному

Types of Lexical Exercises and Their Impact in Teaching German as a Second Language

Toxirova Madinabonu Abdumo‘min qizi

FDU.madinatohirova2007@gmail.com

+998887351201

Annotatsiya

Ushbu maqolada ikkinchi til sifatida nemis tilini o‘rganishda qo‘llaniladigan leksik mashq turlari va ularning ta’siri tahlil qilinadi. Leksik mashqlar o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish, so‘zlarni kontekstda tushunish va to‘g‘ri ishlatishga xizmat qiladi. Maqolada bu mashqlarning sinf sharoitida qo‘llanishi, samaradorligi va ularni tanlashdagi didaktik mezonlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar : nemis tili, leksik mashq, so‘z boyligi, til o‘rgatish, ikkinchi til

Аннотация

В статье рассматриваются виды лексических упражнений, применяемых при обучении немецкому языку как второму иностранному, и их влияние на процесс усвоения лексики. Описываются методы, направленные на активизацию словарного запаса учащихся, формирование навыков правильного употребления слов в контексте, а также повышение мотивации к изучению языка.

Ключевые слова: немецкий язык, лексические упражнения, словарный запас, преподавание, второй иностранный язык

Abstract

This article examines types of lexical exercises used in teaching German as a second foreign language and their impact on vocabulary acquisition. It describes methods aimed at developing students’ lexical skills, contextual understanding, and motivation to use new vocabulary actively and correctly.

Keywords : German language, lexical exercises, vocabulary, language teaching, second foreign language

Kirish

Bugungi kunda chet tilini o‘rganish global ehtiyojga aylangan bo‘lib, ayniqsa ikkinchi til sifatida nemis tiliga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Chet tilini

samarali o'rganish esa ko'p jihatdan lug'aviy boylikni puxta o'zlashtirish bilan bog'liq. Chunki so'z bilmasdan grammatikani, fonetikani yoki muloqotni to'liq o'zlashtirish mushkul. Shu sababli lug'aviy mashqlar chet tili o'rgatishning asosiy unsurlaridan biridir.

Nemis tilining leksikasini o'rganishda mashqlarning turlari, ularning mantiqiy tuzilishi, takroriyliigi va kontekstga bog'liq ishlatilishi жуда муҳим. Ushbu maqolada aynan nemis tilini ikkinchi til sifatida o'rgatishda qanday leksik mashq turlari samarali bo'lishi va ularning o'quvchilarga ta'siri tahlil qilinadi.

Lexik mashqlarni quyidagi asosiy turlarga ajratish mumkin: Tanlash mashqlari (Receptive Übungen) O'quvchiga bir nechta so'zlar yoki iboralar beriladi va u keraklisini tanlaydi. Bu mashq passiv so'z boyligini faollashtirishga xizmat qiladi.

Masalan: „Welche Wörter gehören zur Familie?“ (Mutter, Tisch, Vater, Stuhl, Schwester) To'ldirish mashqlari (Lückentexte), Matn yoki gap ichidagi bo'sh joylar to'ldiriladi. Bu mashq kontekst asosida lug'atni tanlashga o'rgatadi.

Masalan: „Ich __ jeden Tag zur Schule.“ (gehe)

Sinonim va antonimlarni topish. Bu mashq semantik tafakkurni rivojlantirib, so'z ma'nolarini aniqlik bilan o'zlashtirishga yordam beradi.

Masalan: „Was ist das Gegenteil von 'kalt'?“

Matching mashqlari. So'z va ularning tarjimalari yoki rasmiy ifodalari moslashtiriladi. Masalan: „Haus“ — „uy“, „Auto“ — „машина“, „Buch“ — „китоб“.

Gap tuzish mashqlari. Yangi o'rganilgan so'zlar yordamida mustaqil gaplar yoki kichik matnlar yozish. Masalan: „Schreibe einen Satz mit dem Wort 'lernen'.“

Rolli suhbatlar. O'quvchilar ikki kishilik vaziyatlarda yangi o'rganilgan so'zlarni muloqotda qo'llaydi. Masalan: „Kunde und Verkäufer im Geschäft“ — xaridor va sotuvchi o'rtasidagi suhbat.

Rasm asosida hikoya tuzish. O'quvchilar rasmga qarab, so'zlar tanlaydi va hikoya yaratadi. Bu mashq nutqni rivojlantirish bilan birga, so'zlarni amaliy ishlatish ko'nikmasini shakllantiradi.

Xulosa

Nemis tilini ikkinchi til sifatida o'rganishda leksik mashqlar alohida ahamiyatga ega. Mazkur mashqlar o'quvchilarning lug'aviy boyligini oshiradi, tilni kontekstda anglash va uni erkin qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Samarali leksik mashq turlari nafaqat yodlashni osonlashtiradi, balki o'rgangan so'zlarni faol nutqda qo'llash imkonini ham yaratadi. Shunday ekan, leksik mashqlarni to'g'ri

tanlash, ularni bosqichma-bosqich va tizimli tarzda o‘tkazish til o‘rgatishdagi muhim pedagogik vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boboyeva M. Chet tillarni o‘rgatish metodikasi, Samarqand, 2020.
2. Schunk, H. / Schäfer, L. Wortschatzarbeit im Fremdsprachenunterricht, Berlin: Cornelsen, 2016.
3. Harmer, J. The Practice of English Language Teaching, Pearson Education, 2015.
4. Gass, S. / Selinker, L. Second Language Acquisition: An Introductory Course, Routledge, 2008.
5. Dudenredaktion. Das Fremdwörterbuch, Mannheim: Dudenverlag, 2020.